

Filologiya fanlari
Филологические науки
Philological sciences

AHMAD ARABLU IJODIDA SATIRA VA YUMORNING MAVQEI

Yusupova Dinora Akmal qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik
kafedrasi o'qituvchisi

pochta: dinoryus2021@gmail.com

tel:99.305-10-08

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12743291>

Annotatsiya: *Mazkur maqola Eron adabiyotida satira va yumorning o‘rni, mazkur janrda ijod qilgan ijodkorlar, xususan Ahmad Arablu va uning ijodi haqida so‘z ketadi. Shuningdek Eron hikoyanavisligining tarqqiyoti va unda Ahmad Arabluning o‘rni masalasi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Satira, ma’rifatparvarlik, Eron milliy adabiyoti, pyesa va dostonlar.*

Аннотация: *В данной статье говорится о роли сатиры и юмора в иранской литературе, создателях этого жанра, особенно Ахмеде Араблу и его творчестве. Также рассмотрен вопрос развития иранского сказительства и роль в нем Ахмада Араблу.*

Ключевые слова: *Сатира, просветительство, иранская национальная литература, пьесы и эпос.*

Abstract: *This article talks about the role of satire and humor in Iranian literature, the creators of this genre, especially Ahmed Arablu and his work. The issue of the development of Iranian storytelling and the role of Ahmad Arablu in it is also considered.*

Key words: *Satire, enlightenment, Iranian national literature, plays and epics.*

Satira – hayotdagi voqeliklarni san’at vositasi orqali ko‘rsatish usullarining biridir. Satirik yozuvchiga mavzuni hayotning o‘zi beradi. U hayotdagi u yoki bu nojoiz holatlarni kulgu, hazil va zaharxandaliklar bilan ko‘rsatadi, bu bilan bunday

holatlarga keskin zarba beradi. A.V.Lunacharskiy o‘zining “Kulgu haqida” maqolasida satiraning jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risida aniq tushuncha bergan: “Kulayotgan kimsa raqibining bo‘sh va salbiy tomonlarini ochadi, bu esa – jamiyat rivojlanishida katta ahamiyatga egadir”.

Satira, har qanday adabiyot kabi, jamiyat uchun foydalidir, chunki yozuvchi jamiyat rivojlanishi tarafdoridir. Progressiv demokratik satira jamiyat hayotida muhim rollarning birini o‘ynaydi, chunki u rivojlantiruvchi kuchga egadir.

Ko‘pincha, satiriklar tirnoq ostidan kir qidirmaydilar, ular odamlar obrazini yomonlikka, zulmga qarshi ideallashtirib yaratadilar.

Fors adabiyotida bunday satirani Zaynal Obiddinning “Ibroximbekning sayohati kundalıkları” va Sodiq Chubakning qissa va hikoyalarida uchratish mumkin.

Satirik – hazilkash, ko‘ngil ochuvchi yozuvchi emas. Unda kulguli holatlar bo‘lmasligi ham mumkin. Rus yozuvchisi Saltikov-Shedrinning yozishicha, “Realistik satira tashqi kulguli holatlarga emas, balki ichki mazmuni mazax qilishga asoslangan bo‘lishi kerak”.

Yumor zaharxandalik va parchalab tashlovchi xajvdan yiroq bo‘lsa-da, unda baribir tanqid elementi mavjuddir. Shuning uchun, Jamolzodaning “Filantropiya” hikoyasidagi personajlardan professorning yoki Xisrav Shohoniyning hikoyasidagi Millatzoda obrazlariga yumor yo‘g‘rilgandir. Bunday holat o‘quvchida ushbu personajlarga nisbatan hurmat uyg‘otadi va ular yomon ko‘rgan narsalarni u ham yoqtirmaydi. Bu haqda A.V.Lunacharskiy ham yozgan: “Haqiqiy yumor hajv bor joyda yaxshi ko‘zga ko‘rinadi”.

Satira va yumorning o‘zaro munosbatlarini M.Kolsov ham yaxshi ilg‘ab olgan: “Eng o‘tkir, eng zahar satira ham o‘zida ozgina bo‘lsa-da, tabassum elementlarini saqlashi lozim. Aks xolda, u o‘z xususiyatlarini yo‘qotadi. O‘z navbatida, yumor ham satiraning xislatlarini olgan bo‘lishi kerak.

Ahmad Arablu ijodida mana shu ikki hodisa satira va yumor ajoyib xalqona ohang, ertaknamo bayon uslubiga yo‘g‘rilgan holda namoyon bo‘lganki, biz buni adib hikoyalarini tahlili jarayonida yana bir bor amin bo‘lamiz.

Ahmad Arablu 1965 yilda Tehronda tug‘ilgan. Talabalik yillaridanoq “Rushd” jurnalida xodim sifatida faoliyat yuritgan. Uning yoshlarga murojaat tarzida bitilgan ko‘plab hajviy hikoyalari birin-ketin matbuotda e‘lon qilinib, yozuvchiga katta shuhrat keltirdi. 1983 yilda adibning birinchi hikoyalar to‘plami nashrdan chiqdi.

1986 yilda Ahmad Arablu “Rushde navjavon” (“Yoshlar tarbiyasi”) nomli jurnalning bosh muharriri etib tayinlandi. Jurnalda ishlash bilan bir qatorda u magistraturada tahsil oldi va “fors tili va adabiyoti” mutaxassisligiga ega bo‘ldi.

Hozirga qadar adibning 80 ga yaqin asari chop etilgan bo‘lib, ularning aksariyati o‘smirlarga bag‘ishlangan.

Fors adabiyoti tarixi davomida o‘z ijodida ilk bor o‘smirlar va bolalar mavzusiga alohida e‘tibor qaratgan yozuvchi, ma‘rifatparvar adib Abdurahim Tolibov edi. Darhaqiqat, XX asrning birinchi choragida fors adabiyotida bolalar uchun maxsus yozilgan asarlar deyarli yo‘q edi. A.Tolibovning “Ahmadning kitobi” nomli asari bir necha o‘n yillar mobaynida Eronda alohida bolalar uchun yozilgan yagona asar bo‘lib kelayotgan edi. Bizningcha yozuvchi adabiyotdagi bu bo‘shliqni to‘ldirishni maqsad qilgan.

O‘tgan asrning 20-yillarida Eronda ma‘rifatparvarlik islohoti o‘tkazilib, yosh avlodni tarbiyalashda ijobiy rol o‘ynovchi bolalar badiiy adabiyotini rivojlantirish masalasi qo‘yildi.

Ushbu masalani amalga oshirishda birinchilardan bo‘lib shoir Iraj Mirzo o‘z hissasini qo‘shdi. Uning bolalarga atab yozgan qit‘alari tez orada xalq orasida shuhrat qozondi. Iraj Mirzo yozgan she‘rlarni nafaqat bolalar, balki o‘smirlar ham sevib mutoala qilar edi. “Yomon bola”, “Pand”, “Idrokli va aqlli bolalar”, “Navro‘z bayrami” va boshqa she‘rlari yoshlarning eng sevimli asarlariga aylandilar. Iraj Mirzoning bolalarga atab yozgan she‘rlarining tili o‘zining sodda va ravonligi bilan ajralib turadi. Uning she‘rlari xalq tilini saqlagan holda quvnoq va jo‘shqin ruhda yozilgan. Ular demokratik xususiyatlarga ega bo‘lgan, bolalarni oliy axloq ideallari ruhida tarbiyalovchi, ularda kattalarga nisbatan hurmat, bilimga muhabbat uyg‘otuvchi she‘rlardir.

Iraj Mirzo she‘rlari Eron milliy adabiyotida maktabda o‘qitishga mo‘ljallangan dasturlarga kiritilgan dastlabki asarlardan edi.

Butun samarali umrini ijodga, bolalar adabiyoti rivojiga xizmat qilishga sarflagan adiblardan yana biri Jabbor Bog‘chebon bo‘lib, uning 1929-yilda “زندگی کودکان برای” “کودکستان و مطالعات ابتدایی» («Bolalar hayoti: bog‘cha va boshlang‘ich mutoala uchun») nomli kitobi Sherozda chop etildi, shuningdek “قصه های گرگ و چوپان» («Cho‘pon va bo‘ri qissasi»), “عروسان کوه» («Tog‘ kelinlari»), “با با برفی» («Qorbobo»), “بادکنک», “” va boshqa ko‘plab bolalarga bag‘ishlangan eng sara badiiy asarlari bilan kitobxonlar va adabiy tanqidchilarning diqqat-e‘tiboriga tushdi.

Ustoz Alinaqi Vaziriy uch jildli musiqa notalariga tushirilgan she‘rlar, pyesalar va dostonlar majmuasini nashr ettirdi. Bu asarlar qahramonlarining ismlari eroncha bo‘lsada, unda tasvirlangan voqealar syujeti fransuz asarlaridan aynan olingan edi. Mashhur prozaik Sodiq Hidoyat va “she‘re nou” (“yangi she‘r”) yo‘nalishining asoschilaridan hisoblangan Nimo Yushij ham bolalarga bag‘ishlab yozilgan she‘rlar va

qissalarga alohida e‘tibor qaratganlar. Sodiq Hidoyat “شنگول و منگول” («SHangul bilan Mangul»), “آقاموشه» («Janob sichqon») kabi matallar to‘lamini qayta yozgan bo‘lsa, Nimo Yushij 20-yillardan boshlab bolalar uchun qimmatli she‘rlar va dostonlar yozdi. Shu yillarda Fazlulloh Subhiy Muhtado radioda bolalar uchun ertak o‘qish dasturini yo‘lga qo‘ydi va o‘z radiotinglovchilari ko‘magi yordamida Eron xalq ertaklarini jamlashga kirishdi hamda keyinchalik ularni bir necha kitoblar shaklida chop ettirdi.

Abulqosim Jannatiy Atoiy ham "علی بابا و چهل دزد بغداد" ("Ali bobo va Bog‘dodning qirq qaroqchisi"), "عروس ملی" («Milliy kelinchak»), "بچه شیطان" («SHaytonning bolasi») va Kuhiy Kermoniy "افسانه های روستایی" («Qishloq afsonalari») pesalarini yozganlar. Abbos Yamaniy Sharifning «آواز فرشتگان» («Farishtalar ovozi»), "بازی الفبا" («Alifbo o‘yini»), "دو کد خدا" («Ikki oqsoqol») nomli she‘riy to‘plamlari, Arjangiyning "خاله سوسکه" («Qo‘ngiz xola»), "آقا موشه" («Janob sichqon»), "خروس و روباه" («Xo‘roz va tulki») nomli ertaklari, shuningdek iste‘dodli adib Muhammad Boqar Xushyorning bolalarga bag‘ishlab yozilgan ko‘plab sodda, ravon tildagi kichik nasriy asarlar, bolalarga Nyuton, Paskal, Galiley kabi mashhur olimlar hayoti haqida ma‘lumot beruvchi Ruhiiy Arbob qalamiga mansub asarlar Eronda bolalar va o‘smirlar adabiyotining qimmatli namunalari hisoblanadi.

Eronda bolalar mavzusidagi adabiyotning taraqqiy etishida shubhasiz jahon adabiyotidan qilingan tarjima asarlarning ham roli kattadir. Muhammad Qoziy, M.A.Ozin, Masud Farzod, Sodiq Chubak va Ibrohim Guliston kabi mashhur yozuvchi va tarjimonlar jahon adabiyotining eng yaxshi asarlarini tarjima qilish orqali Erondagi yoshlar muammolariga nisbatan o‘z munosabatlarini bildirdilar.

M.A.Ozin Roman Rolanning “Jan Kristof”, Muhammad Qoziy “Charli Chaplinning tarjimai xoli” va Sent Egzyuperining mashhur «Kichik shaxzoda» asarini, Masud Farzod «Beozor muallim» pesasini, Sodiq Chubak «Alisa ajoyibotlar mamlakatida» asarini, Ibrohim Guliston esa Mark Tvenning «Tomsoyer va Gekelberi Finning mojarolari» asarlarini, shuningdek dunyoga mashhur Hans Kristian Anderson ijodidan namunalarni fors tiliga mohirlik bilan o‘g‘irishdi.

Bu harakatlarning natijasi o‘laroq bora-bora Erondagi ko‘plab davlat va nodavlat tashkilotlari bolalar muammolarini o‘rganish vazifasini o‘z oldiga asosiy maqsadlardan biri sifatida belgiladilar. Bu xayrli ishga matbuot organlari ham yaqindan ko‘mak berdilar. Ko‘plab Eron noshirlari o‘z faoliyatlarining bir qismini bolalar kitoblarini nashr ettirishga bag‘ishladilar va xususan, «Bolalar va o‘smirlar ongini taraqqiy ettirish» tashkilotining tasis etilishi bilan bolalar va o‘smirlar adabiyoti yanada taraqqiy topdi. Shu tariqa doimiy ravishda bolalar mavzusidagi kitoblar nashr etildi, qayta yozilib, qaytadan tuzildi.

Biroq Ahmad Arablu ijodining eng muhim xususiyatlaridan biri voqealarning bolalar va o‘smirlarga pand-nasihat, ibrat tarzida bayon qilinishi va shu bilan birgan bu bayonda yumoristik ohangning kuchli bo‘lishidir. Yozuvchining ko‘plab hikoyalarini bolalar va yoshlar haqida yozilgan muvaffaqiyatli asarlar qatoriga kiritish mumkin. Yozuvchi o‘ta jiddiy tarixiy mavzularni ham yumorga yo‘g‘rilgan holda hikoya qilib bera olishi mumkin. Masalan, uning “Marko Polo”, “Xristofor Kolomb” nomli hikoyalarini olsak. Ularda yozuvchi Xristofor Kolomb va Marko Polodek tarixiy shaxslar hayotini eron kishisiga xos yengil kulgi, hazil mutoyiba yo‘sinida bayon qiladi. Fikrimiz isboti sifatida “Xristofor Kolomb” hikoyasidan bir lavhani kuzatsak. Hikoya Xristofor Kolombning dunyoga kelishi voqeasi bilan boshlanadi:

“Xristofor Kolombning nomi, o‘z davridagi mashhur kishilarning ismi-sharifidan farqli o‘laroq aynan shunday edi, mo‘g‘ullarning Chingizxonidan uch yuz yil o‘tgach Italiyada tug‘ilgan. Umuman olganda Xristofor Kolombning dunyoga kelishining na Chingizxonga va na boshqa xonga aloqasi bor. E’tirof etish zarurki, tarixni yozuvchilarga, ayniqsa, bizning usulda yozadiganlarga Chingizxonni Xristofor Kolombning amakasining xolavachchasining tog‘asini xolasining eri deya bevosita qarindoshlik rishtasiga borib taqashning hech qanday foydasi yo‘q.” Shu tarzda hikoya davomida shunaka turli, biroz g‘alaz va bir qarashda tushunarsiz o‘xshatishlar ko‘plab uchraydi. Yozuvchi tarixiy faktlarni qiziqarli voqealarni misol keltirish orqali dallilaydi. Masalan, Xristofor Kolombning dengizchi bo‘lishiga sabab, uning otasining “jun sotuvchi” ekanligidir, deya izohlaydi. Yoki bo‘lmasa, Kolombning Portugaliyaga kelib qolishga asosiy sabab, u o‘tirgan kemandi halokatga uchrashi va u bir taxta bo‘lagiga yopishib tinimsiz suzgani va Portugaliya qirg‘og‘iga kelib qolganini va shu yerda portugaliyalik bir zodagonning qiziga uylangani xuddi real voqeadek hikoya qila turib, “qarang-a biror parcha taxta taqdirni qanchalik uzoqlarga eltishi mumkin” deya kinoyali ibora bilan fikrini yakunlaydi. Xullas, Arablugacha bo‘lgan satirik va yumoristik asarlarda bu taxlit bayon uslubi uchramaydi.

Biroq ahamiyatlisi shundaki, yozuvchining aksariyat hikoyalarida satirik yoki yumoristik bayon tagzaminida real voqelik yotadi.

Ahmad Arabluning biz tahlilga tortmoqchi bo‘lgan “Tekin boylik yohud mehnatsiz rohat” hikoyasi pand-nasihat ruhida yozilgan bo‘lib, unda mehnatsiz boylikka ega bo‘lish ilinjida bo‘lgan insonlar achchiq kulgi ostiga olinadi. Hikoyaning mohiyatini tushunish uchun bevosita uning syujet xususiyatlariga qisqacha to‘xtalamiz.

Ahmad Arabluning “Obro‘li odamlar” to‘plamiga kiritilgan “Tekin boylik yohud mehnatsiz rohat” hikoyasining syujetini tushida berkitilgan xazinani ko‘rib o‘ngida uni

izlashga tushgan insonning ko‘rgan kechirganlari tashkil qiladi. Dastlab hikoyani mazmuni bilan tanishganda, u qaysidir bir jihatlari bilan Paolo Koeloning “Alkimyogar” romanini yodga soladi. Roman qahramoni Syantago tushida ko‘rgan xazinani izlab yo‘lga tushadi va ko‘plab sarguzashtlar, g‘ayritabiiy voqealarga duchor bo‘lib, nihoyat izlagan narsasini o‘z uyiga qaytib kelib topadi. “Tekin boylik yohud mehnatsiz rohat” hikoyasida ham syujet yo‘nalishi xuddi shu yo‘sinda kechadi. Hikoya ochchiqqo‘lligi tufayli hech vaqosiz qolgan xotamtoy bir insonning tush ko‘rishi epizodi bilan boshlanadi:

“Roviylarning rivoyat qilishlaricha, qadim - qadim zamonda Qoxira degan tamonda nihoyatda bir boy kishi bo‘lgan ekan. Ammo shunga qaramay bu boy kishi juda ham serharajat va ochiqqo‘l inson ekan. Shu xotamtoyiligi sababli bor - yog‘i shamolga sovurilib, boyligini qo‘ldan chiqaribdi. O‘ziga esa faqatgina otasidan qolgan bir eski uy qolibdi.

Oxir oqibat, hech narsasiz qolgan xotamtoy, och qolmaslik uchun ishlashga majbur bo‘libdi. (Qadimda boylar ishlamaganlar). Kunlarini va iztirobli damlarini may-sharob ichish va shunga o‘xshagan ishlar ya‘ni aysh - ishrat bilan o‘tkazaveribdi.

Kunlardan bir kuni, ko‘p ishlaverganidan charchab qolgan boy, tomorqasidagi bog‘idagi (albatta otasidan qolgan bog‘ida) bir anjir ostida o‘tirib uxlab qolibdi va bir g‘alati tush ko‘ribdi. Tushida boshdan - oyoq ho‘l odamni ko‘ribdi (nega ho‘l odamligini bilmoqchi bo‘lsangiz biroz sabr qilsangiz, keyinroq ma‘lum bo‘ladi).

Boyagi boshdan – oyoq ho‘l odam og‘zidan bir tilla tangani chikarib, hech narsasiz qolgan ochiqqo‘l xotamtoy insonga “Sening sirli baxting Isfahon shahrida yashirilgan, sen yaxshi odam bo‘lganliging uchun ham buni senga aytyapman, zudlik bilan u yerga bor va boylikni top!”, - debdi. So‘ng xotamtoy qo‘liga tangani olgach uyg‘onib ketibdi”.

Yozuvchi hikoyani xuddi ertaklarning boshlamasida bo‘lgani singari “qadim-qadim zamonlarda” degan an‘anaviy boshlama bilan boshlaydi. Syujetdagi voqealar xronologik tartibda davom etadi.

Biz tahlil qilayotgan hikoyada detal sifatida “tush” motivi tanlanadi. Qahramonning ko‘rgan tushi qator tafsilotlarning yuzaga kelishi uchun omil yaratadi. Tafsilotlar zanjiri ana shunday qatorlashgani sababli qahramonning qiyofasi yanada jonlanadi. Ko‘rinadiki, tafsilot ko‘plikda ta‘sir qiladi.

“Ertasi kuni darhol kemaga o‘tirib yo‘lga tushibdi. Uzoq safar oson kechmasligini bilmagan xotamtoy, kallakesar dengiz qaroqchilari, juda xasis odamlar, odamxo‘r mahluqlar qo‘ldan eson - omon qutulibdi. Daryolardan, tog‘lardan o‘tish paytlarda turli xil vaxshiy hayvonlarga duch kelibdi. Ammo Isfahon tomon yurishda davom

etaveribdi. O‘sha afsonaviy shahar darvozasiga yetib bormasidan nogahon qosh qorayib qoldi. (“nogahon” so‘zini bu yerda ishlatishning zarurati yo‘q. Agar xohlasangiz, bu so‘zning o‘qimasangiz ham bo‘ladi).

Yuqorida asardan keltirilgan lavhalarda ba‘zi o‘rinlarda qavs ichida kinoyali, ilmoqli jumlar berib otiladiki, bu tarzda detallarning kiritilishi ham hikoyaga achchiq kesatik ruhini beradi. Shuningdek, agar qavs ichida berilgan ta‘kidlarni alohida olib qaraydigan bo‘lsak, unda boy obraziga muallif tomonidan berilgan xarakteristikasi hosil bo‘ladi.

...“Boy noilojligidan tunni bir xaroba joyda o‘tkazishga majbur bo‘libdi va ming xavotir bilan tong ottiribdi. (Xavotir olishiga asosiy sabab begona joyda uxlaganidir. Boy kishilar hech ham bunday tong ottirmaydilar). U tunab qolgan uyning atroflarida kallakesar qaroqchi o‘g‘rilar yashar edilar va begona kishilarni, ayniqsa musofirlarni tunar edilar. Shu kuni kechasi qaroqchi o‘g‘rilar boy yotgan xaroba kulbaga kirdilar. Ammo boy uyg‘onib o‘g‘irilarni ko‘rib qolibdi va dod - voydod sola boshlabdi. Hammasini tushungan saxiy boy, odamlarni yordamga chaqirdi. Qo‘shnilar ham uning dod - voyiga bor ovozlari bilan qo‘shilib baqira boshlabdilar. Natijada, bu to‘s - to‘polonlar shahar Dorug‘asining qulog‘igacha yetib boribdi. O‘g‘rilar noiloj bu yerni tark etishga majbur bo‘libdilar. Dorug‘a hamma joydan o‘g‘rilarni qidirishni buyuribdi. Askarlar hikoyamizning qahramonini topib, zo‘rlab, tortqilay - tortqilay Dorug‘aning oldiga olib kelibdilar.

Xotamtoy esa dod – voy solib “Men o‘g‘ri emasman, bir vaqtlari o‘zim boy bo‘lganman...”, - debdi.

Lekin askarlar “Kimsan? Amirmisan? Biz seni o‘z ko‘zlarimiz bilan xarobada kuzatib turgan edik”, - deyishibdi. Dorug‘a o‘g‘rini jazolash uchun askarlarga turli topshiriqlar beribdi va xatto xotamtoyi turli qiynoqlar sababli xushidan ketib, jon taslim qilishiga bir bahya qolibdi. Shunga qaramay u zindonda, ikki kundan so‘ng xushiga kelibdi. (Bu ikki kunda uning yo‘l charchoqlari chiqib ketgan edi).

Dorug‘a undan kimligini va nimaga kelganligini so‘rabdi.

Xotamtoy, boy kishi bo‘lganligini, Qohira shahridan kelganligini aytgan ekan... Dorug‘a unga sening qayerdan kelganligingni so‘radim, qanday kishi bo‘lganliging bilan mening necha pullik ishim bor, bilaman bu yerga nega kelganligingni?! – debdi.

Qahramonimiz boshidan o‘tkazganlarini oqizmay - tomizmay Dorug‘aga aytib berishga qaror qilibdi. Bir kuni bog‘ ichidagi anjir daraxti tagida uyquga ketganida, bosh - oyog‘i ho‘l odam uning tushiga kirganligini, uni yashirilgan sirli baxti Isfahon shahrida ekanligini aytibdi. “Lekin endi bilsam, bu odam meni yo‘lga boshlab, baxt -

iqbolimdan xabar berib, boshimga g‘avg‘olar solishi, ro‘yodan boshqa bir narsa emasligini tushundim,” - debdi.

Dorug‘a bu gaplarni eshitib, og‘zi g‘or kabi chuqur va katta ochganligidan qurtlagan aql tishlari ham ko‘rinib qolibdi. So‘ng bir oz tin olgach, “ey kaltafaxm odam! Bir tushga ishonib, dunyoning bir chetidan boshqa chetiga kelib o‘tiribsanmi? men uch marta tushimda o‘sha Qoxiradagi xovlini, uning bog‘ini, quyosh soati ostidagi anjir daraxtini, favvora va xovuzni, xovuz tagidagi yashirilgan xazinani ko‘rganman”, - debdi. (Dorug‘a bularni bir nafasda aytibdi). U kaltafahm bo‘lsa ham bu puch tushlarga hech qachon ishonmaganligini aytibdi. Shundan so‘ng unga debdi: “Sen kaltafahm xachir, (kechirasiz, qadimda Dorug‘alar odatda shunday so‘kinar edilar) bir bema‘ni tushga ishonib o‘tiribsanmi?”. Yo‘qol! Boshqa bu yerlarda qorangni ko‘rsatma! Agar yana seni bu yerlarda ko‘rib qolsam, o‘ldim deyaver! Mana bu pulni ol, uni yo‘l xarajatlariga ishlat va bu yerlarga hech qachon qaytib kelma...

Dorug‘adan pulni olib qayerdan, qanday kelgan bo‘lsa, xuddi shunday o‘sha yeriga ravona bo‘libdi. Yana o‘sha kema, o‘sha xasis odamlar, mahluqlar, kallakesar qaroqchilar, tog‘ va dashtlar...

Nihoyat uyiga kelgach, o‘sha Dorug‘aning tushiga kirgan favvora tagidan yashirin xazinani topibdi va baxtli xayot kechiribdi!

Bolajonlarim bu hikoyadan xulosa chiqaradigan bo‘lsak! Agar tushda, boshdan oyoq ho‘l odamni ko‘rsangiz va tilla tangani og‘zidan chiqarsa, siz ham uyingiz favvorasi tagida xazina yashirilgan degan xulosaga kelmang. Mehnat qiling, zero - “Mehnat – mehnatning tagi rohat”.

Voqeani bu tarzda yakunlash ham Ahmad Arablu uslubining o‘ziga xos jihati hisoblanadi. Zero “Uslub – odam” degan qarashning vujudga kelishi bejiz emas: asar o‘zida ijodkor shaxsini ifodalalar ekan, buni uslubda namoyon etadi.

Hikoyada dorug‘a va xotamtoy o‘rtasidagi dialog o‘ziga xos yumor bilan yo‘g‘rilgan holda bayon etiladi. Ayniqsa, dorug‘aning xotamtoyni “xachir”, “kaltafahm”, “tushga ishonib o‘tiribsanmi” deya qilgan murojaati o‘quvchida kulgi uyg‘otadi.

Ushbu hikoyada nafaqat yoshlarga, balki umuman barcha insonlarga saboq olishga arzigulik voqea tasvirga olingan. Hikoyani o‘qiy turib mashhur shoir Maqsud Shayxzodaning:

*Taqdirni qo‘l bilan yaratur inson,
G‘oyibdan kelajak baxt bir afsona,
degan satrlari yodga tushadi.*

Darhaqiqat, inson ba’zida yonidagi baxtni, yonidagi omadni umr bo’yi boshqa joydan qidirishi va natijada o’zining hayotini o’zi murakkablashtirishi mumkin. Garcha hikoya yumoristik bir ruhda, hazilomuz tilda bayon qilinsa-da. Uning zamirida chuqur hayot falsafasi yotadi. Bu hikoyada behuda hoyu-xavaslariga berilmaslik, maqsad yo’lida tinimsiz mehnat bilan, halol yo’l bilan erishish mumkinligi, shuningdek boriga qanoat qilish, hayotga shukronalik g’oyasi ilgari suriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Хўқуқий. М. Адабиёте эмрузе Ирон. Техрон, 1998
2. Эрон адабиёти хрестоматияси (Тузувчилар Ж.Э Хазраткулов, М.Ш. Абдусаматов), Тошкент, 1992
3. Персидские юмористические и сатирические рассказы. Москва. Правда». 1988.
4. История персидской литературы XIX-XX веков. Москва, “Восточная литература”, 1999
5. Алиев С.М. История Ирана XX век. Москва ИВ РАН -2004